

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2021-7

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2021

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир ҳайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.

Абдуллаев Равшан Бабажонови, тиб.ф.д., проф.

Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.

Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.

Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.

Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.

Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.

Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.

Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.

Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.

Кадиров Шавкат Юлдашевич, қ/х.ф.н.

Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.

Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.

Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.

Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.

Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.

Рўзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.

Рўзимбоев Сапарбой, ф.ф.д., проф.

Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.

Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.

Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.

Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.

Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.

Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик

Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.

Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.

Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.

Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.

Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.

Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.

Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.

Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.

Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№7 (78), Хоразм Маъмун академияси, 2021 й. – 352 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2021

Равшанов Ш.Р. Манбаларда Россия империясининг Фарғона вилоятига аҳолини кўчириш сиёсатининг ёритилиши	210
Саидов Ш.Ж. 1839 йил “Хива экспедицияси”га оид янги маълумотлар	213
Сайфуллаев Б.Д. Ўзбекистон-Ҳиндистон: икки томонлама ҳамкорликнинг янги саҳифалари	217
Сайфуллаев Х.Т. “Туркистон тўплами” материалларида Шарқий Туркистон тарихига оид тадқиқотлар	220
Сориёв Х.Я. Амир Темурнинг ҳарбий тактикаси ва стратегиясидаги ўзгаришлар	222
Тўхтабоева Д.Э. Фарғона водийси шаҳарларининг демографик кўёфасидаги ўзгаришлар	226
Хусайнбекова Г.М. Ёзувнинг ўзгартирилишининг анъанавий маданиятга таъсири	228
Юлдашев Ю.Х. Совет даврида Хоразм вилоятида архив иши шаклланиши жараёнларининг баъзи масалалари	231

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdukadyrova G.B., Baratova I.B. Understanding the main idea and summarizing as reading strategies	234
Abraeva Sh.E. Greek –latin morphemes in french medical texts and terminology	236
Ibragimova D.Sh. Modern pedagogical technologies in teaching english language	238
Irgasheva Sh.S. Neologisms in modern english language	239
Jumayeva S.M. Learning the characteristic features of english phraseological units	241
Jumayeva Sh.Sh. Developing students' creative potential with the help of internet-project	243
Kuliyeva D.A. Kodeks kumanikusda lotin tildagi fe'llar leksikasi	245
Maxmudov R. Ogahiy tarixiy asarlarida muarrablar	248
Maxmudov R. Ogahiy tarixiy asarlarida mutlaq hukmdor tushunchasini ifodalovchi o'zlashmalar	253
Mustafayev Sh. Virtual kommunikativ muhitda italyan ismlarining leksik va semantik tabiati	256
Musulmonova K.X. Konfliktli matnning lingvistik ekspertizasi	259
Nasirdinov O.A. “Time is money” metaforasining lingvokulturologik tadqiqi	262
Nasirdinov O.A. The role of gestures in CLIL (content and language integrated learning) lessons	263
Parmonov A. Humor, irony and satire in discourse	265
Parmonov A. Some types and examples of irony in children's literature	267
Qahramonova S., Yusubova R.N. “Ota” romanida yuklamalar presuppozitsiyasi	268
Sabirova B.U. Pragmalingvistik “discourse” va “communicant” terminlarning leksik- semantik analizi	270
Salikhova K.Yu. Psychological characteristics of personnel's readiness to work	272
Sultonova K. Qadir Habib hikoyalarida badiiy-tasvir vositalarining ifodalanishi	274
Tashpulatova N.B. Lexical semantics of terms in English and Uzbek structure	276
Tojjeva D.Sh. The importance of teaching foreign languages	278
Tuxtayeva S.Yu. Fransuz tilini o'qitishda san'at asarlaridan foydalanish	279
Tuxtayeva S.Yu. Madaniyatlararo aloqa so'zlashuvlarida fransuz tilining Belgiya xududidagi variantlari	281
Yigitaliyeva M. Temporal komponentli gipotaksemalarning qiyosiy tadqiqi	284
Абдуллаев М.А. Формирование и использование коммуникативных качеств в обучении русскому языку	285
Бозорова М.А. Формирование и анализ английских, узбекских и немецких составных существительных	287
Бокарева М.А. Черты постмодернистской эстетики в драматургическом опыте Вен.Ерофеева	290
Гафуров Б.З. Реклама матнининг лингвистикада тутган ўрни	292
Ибрагимова Г.М. Бадий асарда парентетик киритмаларнинг экспрессивлиги ва стилистик вазифалари	294
Инамова М.Т. Принципы составления многоязычного тематического учебного фразеологического словаря	297
Пирматова О. Алишер Навоий асарларида шолчиликка оид лексемалар	302
Рахимов Ж.И. К вопросу о современном состоянии русского языка: правила словоупотребления и заимствования	304
Рахимов Ж.И., Чупонов О.О. Употребление иноязычных лексических единиц в текстах современных СМИ	307
Рўзимбоев С.Р. “Ошик Маҳмуд” достонининг генезисига доир	309
Султонова Н., Рузметова З.Н. Сложные синтаксические конструкции в стихотворении «Ты твердишь, что я холоден, замкнут и сух...» А. Блока	313
Таджибаева М., Гозиев А.Н. Прикладно-практическое значение поэзии Кул Убайди	315
Туйлиева Л.А. Состав слова в русском и узбекском языках	318
Хажиева Ф.М. Лайла Лаламининг “Themoor'saccount” романида фонетик стилистик воситаларнинг контекстуал тадқиқи	320
Халиков Т.Х. Поэтические коллекции в литературоведении периода национального пробуждения предмет объекта и искусство	322
Шодиев И. Вербал коммуникация ва унинг тузилиши	323
Шодиев И. Матн сатҳидаги боғланишлар	325
Ярашова Н.Ж. Қаҳрамон-ҳикоячи нутқи орқали бола шахси рухий ҳолатининг воқеъланиши	327

18. The Assyrian Dictionary of the Oriental Institute of the University of Chicago. Chicago, 1956. –P. 35.
19. Zammit M.R. Comparative Lexical Study of Qur'anic Arabic. Leiden – Boston – Köln, Brill, 2002. –P. 165.
20. Zimmern H. Akkadische Fremdwörter als Beweis für babylonischen Kultureinfluss. Leipzig, 1917. –P. 7.
21. Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.63-71.
22. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. Исследование документов с введением, с предисловием. И.Ю.Крачковского. – Л., 1940.
23. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача луғати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 54.
24. أبو عبد الله محمد احمد بن يوسف خوارزمي. مفاتيح العلوم. الناشر كمال الدين الادهمي. مصر. ١٣٤٩. ص. ٧٧.
25. شمس الدين محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ١٣٨٦. در جلد دوم. ص. ٧٤٨.

UO'K 811.131.1

VIRTUAL KOMMUNIKATIV MUHITDA ITALYAN ISMLARINING LEKSIK VA SEMANTIKA TABIATI

Sh. Mustafayev, magistrant, Samarqand davlat chet tillari instituti, Samarqand

Annotatsiya. Ushbu maqolada, italyan tili misolida, virtual lisoniy shaxs virtual kommunikativ muhitda qo'llaydigan taxalluslarning (niklar) asosiy turlari ko'rib chiqiladi. Tahlillar asosida virtual taxalluslarning leksik va semantik tabiati hamda xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: virtual kommunikativ muhit, virtual lisoniy shaxs, virtual taxallus, italyan tilida niklar, niklar, onomastika, virtual kommunikant, karnavalizatsiya

Аннотация. В статье рассматриваются основные типы псевдонимов (виртуальных ников), которые виртуальный лингвист использует в виртуальной коммуникативной среде, на примере итальянского языка. На основе анализа выявлена лексико-семантическая природа и особенности виртуальных ников.

Ключевые слова: виртуальная коммуникативная среда, виртуальная языковая личность, виртуальный псевдоним, ники на итальянском языке, ники, ономастика, виртуальный коммуникант, карнавализация

Abstract. The article discusses the main types of aliases (virtual nicknames) that a virtual linguist uses in a virtual communication environment, using the example of the Italian language. On the basis of the analysis, the lexical and semantic nature and features of virtual nicknames are revealed.

Keywords: virtual communication environment, virtual linguistic personality, virtual pseudonym, nicknames in italian, nicknames, onomastics, virtual communicant, carnivalization

Virtual olamda inson, voqelikdan farqli ravishda kommunikatsiya qilmasdan o'zini ovoza qilolmaydi, tanitolmaydi, shu sababli ham virtual makonda lisoniy shaxsning o'zini tanishtirishning asosiy vositasi bu uning kommunikativ xulq-atvordir. Faqatgina muloqot qilish orqaligina virtual shaxs boshqa foydalanuvchilar tomonidan tan olinadi va baholanadi. Kommunikatsiya jarayonida o'zini yanada namoyon qilish uchun, ya'ni "ochilish" uchun virtual muloqot qatnashchilari o'zlariga boshqa kommunikativ jarayon qatnashchilarini qarata bilishlari kerak, boshqacha qilib aytganda o'zlarini "reklama" qilishlari kerak. Bu maqsadga erishish vositalari esa: 1) nik yoki foydalanuvchi ismi; 2) avatar, ya'ni foydalanuvchining ma'lum sahifa, forumdagi surati; 3) imzo, ya'ni foydalanuvchi tomonidan yoziladigan o'zi haqidagi qisqa ma'lumot. Nik – bu virtual makonda lisoniy shaxs tomonidan karnavallik yaratish, ya'ni yuziga niqob taqib kommunikatsiyaga kirishish vositasidir. Ushbu bo'limda italyan niklarining o'ziga xos xususiyatlarini va o'z-o'zini tanishtirish vositasi sifatida ko'rib chiqamiz.

Ismlarni o'rganish onomastika sohasi doirasiga kiradi. Taxallus kategoriyasini o'rganish bo'yicha Vinogradov, Dmitreyev, Masanov, Suslova, Ungebaun kabi olimlar tadqiqot olib borishgan. Taxallu adabiyotshunoslikda o'rganilib to'qib chiqarilgan nom degan ma'noni beradi. N.V. Podolskaya taxallu deganda "insonning ijtimoiy hayotida uning haqiqiy ismi bilan birga yoki alohida mavjud bo'lgan o'ylab chiqarilgan ism"ni tushunadi [1, B.40-53].

Ma'lumki, hozirda o'ylab chiqarilgan ism ma'nosini beruvchi taxallus, laqab, nik so'zlari mavjud. O'zbek tilining izohli lug'atida ularga quyidagicha izoh beriladi: 1. Taxallus — Biror ijodkor (shoir, yozuvchi, rassom, olim va sh.k.) yoki siyosiy arbobning o'zi uchun tanlab olgan boshqa, ikkinchi nomi; 2. Laqab — Biror xususiyatiga ko'ra, kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo'shimcha nom; shuningdek, ma'lum maqsadda o'zgartirib olingan nom [2]. Izohli lug'atga hozirda deyarli baynalmilal so'zga aylangan **nik** so'zi kiritilmagan. Italyan onlayn lug'atida nikga quyidagicha izoh berilgan: "Nome abbreviato (o di fantasia), col quale un utente si collega a determinati servizi Internet" (foydalanuvchi ma'lum internet xizmatlariga ulanishi mumkin bo'lgan qisqartma (yoki to'qima) nom) [3]. Bundan kelib chiqadiki, umumiy ma'no beruvchi yuqorida keltirilgan so'zlar bir-biridan ajralib turadi.

Tushunarliki, hozirgi vaqtda internet foydalanuvchilarining virtual makonda o'zini tanishtirish vositasi – internet-nom kerak. Ushbu nomlarni ifodalash uchun hozirda turli so'zlar ishlatiladi: nik, veb-nom, internet-nom, tarmoq nomi, virtual nik va b. Niklar hozirda to'liq o'rganilmagan, shu sababli ham hozirda niklarning lingvistik o'ziga xos xususiyatlari va tabiati ustidagi tadqiqotlar olib borilmoqda (Belinskaya, Yaskina, Klerk, Chabanenko). K. Klerk tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra foydalanuvchilar yangi internet nomining yorqin va esda qolarli bo'lishi uchun affiksalar kombinatsiyasini, orfografik xatolarni qisqartmalarni, raqam va turli belgilarni qo'llashgan.

N. Asmus niklarni tahallus kategoriyasiga kiritadi, chunki nik “virtual jamiyatda muloqot qilish uchun kommunikant tomonidan to'qib chiqariladigan yoki mavjud nomlardan (“yulduz”lar ismlari, ertak qahramonlari, mashhur shaxlar) tanlab olinadigan to'qima asosiy bo'lmagan ismdir [4]. Har bir nik, har bir taxallus kabi inson tomonidan u yoki bu maqsadda tanlanadi. Shu o'rinda biz D. Kristall fikriga qo'shilamiz, ya'ni “kop'chilik insonlar haqiqiy ismidan farqli bo'lgan nomlarni ma'lum maqsad uchun, ehtimol, qandaydir obrazni yetkazish, ba'zi bir yoqimsiz assotsiatsiyalardan qochish, o'zligini yanada esda qolarli qilish, shaxsini yashirish yoki shunchaki, ismini talaffuzda yanada osonroq va jarangliroq qilish uchun qabul qiladilar [5]. V. Dmitriyevaning tavsifi bo'yicha nik “yozuvda haqiqiy ismning o'rnida qo'llaniluvchi to'qilgan yoki o'zgartirilgan ism va familiyalar uchun umumiy nom” [6].

Muallif virtual jamoaga qanday ko'rinishi lozimligi o'zi hal qiladi va tanlagan rakursidan o'zini tanitadi. Nik tanlash bu foydalanuvchining muloqot oldi ruhiy holati, kelajakka umidi yoki xohishlari natijasi bo'lishi mumkin. Tanlangan nik shunchaki xomxayol mahsuli bo'lishi mumkin. Misol uchun, “**orasta qiz**” voqelikda kekxa odam bo'lishi mumkin.

Niklarni leksik va semantik tabiatini tadqiq etish uchun ijtimoiy tarmoqlar (facebook), veb-forumlar (www.valenciaforum.it, www.entomologiitaliani.net, forum.astrofili.org, linguistica.forumfree.it), veb-chatlar (chatt-gratis.net, italia-chat) doirasidagi 350 ga yaqin niklar olindi. Tahlil davomida niklarni tematik belgisiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lib chiqdik: 1) atoqli otlarni bildiruvchi 2) inson ruhiy holatini bildiruvchi 3) inson xarakterini bildiruvchi 4) kasbiy faoliyatni bildiruvchi 5) inson qiziqishlari, xohishlarini bildiruvchi 6) flora va fauna 7) oilaviy ahvolini bildiruvchi 8) yosh bildiruvchi 9) geografik nomlar 10) jinsni bildiruvchi 11) inson tashqi ko'rinishini bildiruvchi 12) xomxayol mahsuli 13) anonim niklar.

1. Atoqli otlarni bildiruvchi niklar foydalanuvchilar orasida eng keng tarqalgan niklar turkumiga kiradi. Virtual dunyoda o'z nomida foydalanuvchi lisoniy shaxslar o'z “men”iga sodiq yoki virtuallikda o'zgacha bo'lishni xohlamasligi natijasidir. Kelib chiqishiga ko'ra atoqli otlar ikki guruhga bo'linadi: asl italyan ismlari va chet el ismlari. Birinchi guruhdagi niklar to'liq holatda (*Cinzia Borsani, Cristina Bessone, Pietro Porcella, Lega Salvini Agostino, Mara Proietti, Anna Violante, Claudio Sannicola, Francesca Gennaro, Sabrina Lopetuso, Roberto Unniemi, Fabio de Luca*) yoki faqat ism ko'rsatilgan holatda (*Cinzia, Andrea, Alberto, Mimma, Maria, Gianpiero, Angelo*) uchraydi. Chet el ismlari (*Charly Braun, Andrew Boll, Sam Labo*) asosan faqat ism ko'rsatilgan holatda (*Bob, Sam, Joe, Elisa*) uchraydi.

2. Inson ruhiy holatini bildiruvchi niklar virtual lisoniy shaxsning muloqot oldi ruhiy holati yoki doimiy ruhiy holatini ifodalashi mumkin. Misol uchun, italyan foydalanuvchilari orasida quyidagi niklar uchraydi: *meravigliosagiornata, soledinverno, sempresole, sadMM, contentissimo*.

Foydalanuvchining nik tanlashi ruhiy holatining turli faktorlar asosida o'zgarishi bilan bog'liqdir, ammo bu kabi niklar faqat personal ma'lumot (ism, kelib chiqish, yosh, jins, kasb) tashuvchi niklarga qaraganda anchayin qiziqarli.

3. Inson xarakterini bildiruvchi niklarga misollar: *creativo, DolceRagazza, dolceserio55enne, donna fedele, DolceIntrigo, fissato, ossessionato_1, cattivo51, piccanteEcarino, sonoirresistibile, Allegra2_21, angelotriste*. Ushbu nimlar foydalanuvchi shaxsini ko'rsatib, uning xarakteriga urg'u beradi va ba'zida boshqa ma'lumotlar bilan birga (yosh yoki jins) keladi. Navbatdagi misollarda tashqi ko'rinish va xarakter uyg'unlashgan holda kelgan: *bellasenzanima, brutto-ma-buono, BelAnreoSincero*. Ushbu guruh niklari tashqi ko'rinishni emas, balki shaxs qadrini ajratib ko'rsatadi (*brutto-ma-buono*), shu uchun ham virtual olamda boshqa odamlarni muloqotga chorlashga undaydi.

4. Kasbiy faoliyatni bildiruvchi niklar qatoriga kasb, mansab, ilmiy xohishlar, ijtimoiy darajasi nomlarini kiritishimiz mumkin. Misollar:

ANESTESISTA, Babysitter{EwLy}, mamma, future_mamma, CHIRURGOplasticonasale, dottore_internauta, Dottoressa21, Educatore_severo, il fotografo, poliziotto, pompiere, infermiere1, Medico, militare137, psicologo_424, Studente206, Studentessa, professore25anni, professoressa48, professore57_Pa, CarabiniereFlorentino, AvvSposata.

Yuqoridagi misollarda foydalanuvchi nima kasb bilan shug'ullanishi yoki ijtimoiy vazifasini ko'rishimiz mumkin (*studente206, mamma, future_mamma*). Ba'zilar niklar orasiga yoshini (*professore25anni*), yashash joyini (*Pa=Palermo*) yoki oilaviy ahvolini (*AvvSposata*) kiritishiga ham guvoh bo'ldik. Tabiiyki, biz bu ma'lumotlarni to'g'riligini aniqlay olmaymiz, biroq ushbu niklar shunchaki o'ylab topilmagan. Bu bilan foydalanuvchi o'ziga mos kommunikant topishni niyat qilgan bo'lishi mumkin.

5. Inson qiziqishlari, xohishlarini bildiruvchi niklar shaxsning xobbilari, qiziqishlari, istaklariga ishora qiladi. Misol uchun, *Li, Teatrale, mad about Gozzy*. Teatrale niki lisoniy shaxsning teatrga qiziqishiga ishorat qilmoqda. Mad about Gozzy nomi kommunikantning Karlo Gotsi shinavandasiligidan dalolat. Li nomi ostidagi foydalanuvchi esa xitoy falsafasiga mukkasidan ketgan. Quyidagi niklar ham qiziqarlidir: *cercodonnasarda, cerco_f_x_chat* **MATUROxSTUDENTESSA, RagazzoSerio47_x RagazzaSeria25, riservataXuomoRISERVATO**. Yuqoridagi nomlarning ilk 2 tasi foydalanuvchining qiziqishini bildiradi, qolgan niklar esa ikki kishi haqida ma'lumot beradi: qidirayotgan va qidirilayotgan haqida. Bu kabi niklar ko'pincha romantikaga bag'ishlangan chatlarda tez-tez uchraydi.

6. Flora va fauna guruhidagi niklar insonni biron bir flora va fauna vakilining sifatleri sohibi sifatida tanishtiradi. Ushbu guruhni quyidagi bo'limlarga bo'lishimiz mumkin:

a) Zoonim: *spinosso-222 (tipratikan), volpe* (tulki), scimmia_1966 (maymun), lep_re (quyon)*;

- b) Ixtionim (baliqlar): *luccio-28 (cho'rtan), carpa.1 1 (karp), acerinaaaa;*
- c) Ornitonim (qushlar): *Passero-39 (chumchuq), usignolo (bulbul), struzzo_54 (tuyaqush);*
- d) Fitonim (o'simliklar): *soffione-2014 (momoqaymoq), **camo*milla** (moychechak),*

gelsomino (jasmin).

Hayvonlar nomlariga qatnashchilar turli belgilarni qo'shishadi (**camo*milla*). Ba'zi nomlar esa qisqartiriladi yoki boshqacha tarzda yoziladi (Scorpi, acerinaaa).

7. **Oilaviy ahvolini bildiruvchi** niklar guruhiga foydalanuvchining oilaviy yoki ijtimoiy holatini ifodalovchi niklar kiradi: *_Sposato_38, DottSposato, adultosposato, angelina36annisinglepadova, Ragazzafidanzata, marito_becco, fantasie-di-un-marito-2, Free-Girl, CarinoSolo, fra_un_mese_mi_sposo_f, vedova, vedova-cerca-amante* va b.

Bu, ehtimol, foydalanuvchilar o'z niklari (taxallus) orqali o'z niyatlarini oshkor qilmoqchi bo'lgan holatlardir: balki ular yaqin munosabatlarni o'rnatish uchun boshqa odamni qidirmoqdalar, yoki aytaylik, ular ishqiy munosabatlarini o'rnatish uchun sherik izlamay, balki shunchaki do'stlashishni yoki shunchaki suhbatlashishni xohlaydilar.

8. **Yosh bildiruvchi** niklar dunyo foydalanuvchilari orasida u qadar ko'p uchramaydi. Ushbu turdagi nomlar foydalanuvchi ismiga sonlar orqali yoshi yoki tug'ulgan yilini kiritishadi (*Angelo88*), yoki faqat sonlarni yozishadi (*i1993*), yoki yosh bildiruvchi otlarni qo'llashadi (*nonno*). Bu orqali foydalanuvchilar o'z yoshini bildirishdan ko'ra boshqa virtual kommunikantlarning ularga tegishli ravishda murojaat qilishlarini ta'kidlaydilar yoki o'z tengqurlarini izlaydilar. Ko'p italyan virtual lisoniy shaxslari chat, forumlarga kirganda o'z ismiga yosh bildiruvchi so'z yoki sonlarni qo'shishadi: *Alessandra22, Uomo65, uomo70enne, Ragazza25, Ragazzo92, Sara94, sonia88, grandenonno, mister1973, fanciula18* va b.

Bu kabi niklar son-sanoqsiz va ularni to'qib chiqarish oson. Ismlarga qo'shilgan sonlarning aynan o'sha foydalanuvchining yoshini bildirishi noma'lum, ya'ni sonlar boshqa ma'nolarni ham bildirishi mumkin, biroq aksariyat hollarda sonlar yoshga sha'ma qiladi.

9. **Georafik nomlar.** Italianlar yashash joylariga bog'lanib qolganlar, ularda mahalliy vatanparvarlik juda kuchli, shu sababli ham niklar orasida virtual kommunikantning tug'ulib o'sgan viloyati (asosan bosh harflari) yoki shahri ko'rsatilganlari tez uchraydi: *MARCHIGIANO83, AntonioNA, GentiluomoTO, gigi_rm, r@gazzaveneta, Ragazzo_Viterbo, alessandrofirenze, ScaccoMatto_Roma, Luca-ferrara, roma-girl, LaMilanese, Carinopugliese*. Tez-tez kelib chiqish joyi va yoshini umumlashtirgan niklar ham uchraydi: *AzzurroPZ34, uomo50anniGenova, xcristian80xnapoli, Milano39, Toscana0037, Diego33MO*. Georafik nomlar ko'p hollarda butun Italiyani qamrab oladigan chatlar, ijtimoiy tarmoqlar va forumlarda uchraydi.

10. **Jinsni bildiruvchi** niklar ko'p emas. Tahlil davomida bir-nechta jinsni bildiruvchi niklar aniqlandi: *Darkmoon_F, Mfuorimisura, fra_un_anno_mi_sposo_f, NaturistaM, okkicelesti-f, m_80enne, M33_Solo, dolce_f*. Nazarimizda jins bildiruvchi qo'shimchalar ko'pincha gender jihatdan bir ajratib bo'lmaydigan so'zlarga qo'shiladi. Misol uchun, *fra_un_anno_mi_sposo_f* taxallusini ko'rib chiqamiz: bu yerda "bir yil ichida turmush quraman" ma'nosini beruvchi so'zga "ayol" ma'nosini bildirgan "f" harfi qo'shilgan. Agar ushbu harf qo'llanmaganda edi, kommunikantning jinsini aniqlashning imkoni bo'lmagan bo'lardi. Italian virtual kommunikantlari "qiz/o'g'il", "ayol/erkak" kabi so'zlarning o'rniga jinsni bildiruvchi "M" (maschio/erkak) va "F" (femmina/ayol) harflarini qo'llashni afzal ko'rishadi. Hozirda ijtimoiy tarmoqlarda noan'anaviy jins vakillarini bildiruvchi taxalluslar ham uchraydi turmoqda (*Alex_trans*).

11. **Inson tashqi ko'rinishini bildiruvchi** bildiruvchi niklarga quyidagi niklarni kiritishimiz mumkin: *carinomilano, biondo, ciccino, Ragazzabella, Ragazzo_palestratocarino, sguardoblu, Bruno45, BELLOCCIO, Bel-20enne-Moro, okkicelesti, UomoElegante, VECCHIAeallora, Ffuorimisura*. Ushbu niklarni ko'z rangini bildiruvchi (*sguardoblu, okkicelesti*), soch rangini bildiruvchi (*biondo, Bruno45, Bel-20enne-Moro*) va umumiy ko'rinishini bildiruvchi (*Ffuorimisura, uomoElegante, ciccino*) niklar guruhchalariga ajratsak bo'ladi.

12. **Xomxayol mahsuli** bo'lgan niklar kommunikantning voqelikda amalga oshirilmaydiga istaklarini yoki u tomonidan to'qib chiqarilgan xayolot mahsulini ifodalaydi. Psixologlarning fikricha shu guruhga kiruvchi niklarda foydalanuvchilarning ro'yobga chiqmagan-chiqmaydigan istaklari namoyon bo'ladi. Virtual reallik esa kommunikantga o'sha niyatlarini amalga oshirishga yordam beradi. Inson xomxayoli virtual reallikda boshqalardan ajralib turishiga yordam beradi: *L'OscuroOsservatore, LaStrega, VoceDelDestino, ladrodistelle87, The first, Diablo, Federico-rich, presidente, LaPrincipessa, diavoladallinferno, jove-86, coronate-95, cont_e, Nero, cuoredipetra*. Ushbu niklar boshqa kommunikantlarning hayratiga, qiziqishiga va muloqot qilish istagini paydo qiladi.

13. **Anonim niklar.** Ushbu guruhga biz egasining anonimligini, noma'lumligini, sirliligini ko'rsatuvchi niklarni kiritishimiz mumkin: *., Uno, qualcuno, *straniero*, missSconosciuta, --incognito--, Signore X, nonimportante_05, From Nowhere*. Anonim niklar xilma-xil usullar yordamida (belgilar, harflar kombinatsiyasi, piktogrammalar) yasalishi mumkin. Bu guruhga mansub niklar orqali virtual lisoniy shaxslar o'zgalarga shaxsiy muloqotni xohlashmasligini bildirishi mumkin. Boshqa tomondan esa yuqoridagi niklar foydalanuvchining sirliligini ifodalab boshqalar e'tiborini tortishga yordam beradi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Nik – tarmoqda aniqlanishi uchun to'qib chiqarilgan yoki shartli nom. Foydalanuvchi tomonidan chatlarda, ijtimoiy tarmoqlarda va shu kabi resurslarda o'zini tanishtirish yoki muloqot qilish uchun yaratiladigan belgilarning badiiy obrazi. Ism virtual kommunikantning nutqiy xulq-atvorining tarkibiy qismidir va virtual lisoniy shaxsning "niqob"ini yaratishga yordam beradi. Virtual niklarning leksik va semantik

tahlili anchagina qiyin, negaki ularning haqiqiy ma'nosini o'sha taxallus egasisiz bilish imkonsizdir. Biz yuqorida keltirgan nik guruhlardan tashqari virtual makonda ulardan ham o'zgacha nik guruhlari mavjud. Misol uchun, hozirda ko'plab foydalanuvchilar qisqartirilgan, tarkibida yumoristik ma'noga ega, xatolik asosida qilingan, ishqiy mavzudagi, millat nomini beruvchi, taxallus, o'zini kamsituvchi, metaforik, avtoreklama va boshqa niklarni qo'llashmoqda. Bizningcha virtual makondagi ismlar muammosi hali izchil tadqiqotlarga muhtoj.

Tadqiqot ishimizdan chiqargan xulosalarimiz quyidagilar:

1. Nik – tarmoqda aniqlanishi uchun to'qib chiqarilgan yoki shartli nom
2. Nik so'zi "taxallus" so'zidan ma'noviy jihatdan farqlanadi.
3. Virtual ismlarning avtonominativ, kommunikativ, o'z o'zini namoyish etish kabi o'ziga xos xususiyatlari bor.
4. Nik virtual foydalanuvchiga virtual muhitga o'rganishga va virtual jamiyatga aralashishga yordam beradi.
5. Nik nominativ, aniqlashtiruvchi, aloqa o'rnatish va texnik funksiyalarni bajaradi.
6. Italyan virtual foydalanuvchilar orasida nik sifatida o'z ism-sharifini qo'llaydiganlar ko'p uchraydi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Подольская Н.В. Проблемы ономастического словообразования // Вопросы языкознания. — М.: 1990. № 3. С. 40–53.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006.- 680 б
3. <https://www.treccani.it/vocabolario/nickname>
4. Асмус Н.Г. Лингвистические особенности виртуального коммуникативного пространства [Текст]: автореф. дис. ... канд. филол. наук / Н.Г. Асмус. — Челябинск, 2005. — 23 с.
5. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. - Third edition. — N.Y.:Cambridge University Press, 2019. - 506 p.– p. 152
6. Дмитриев В. Г. Скрывшие имя свое (Из истории анонимов и псевдонимов). – М.: Наука, 1977. 313 с.
7. Тетерина М.С. Уникальная ономастическая единица- никнейм. // Инфоурок URL: <http://infourok.ru/material.html?mid=34127>
8. URL: <https://it.wikipedia.org/wiki/Nickname>
9. Соков А.А. Никоним в виртуальном дискурсе: лингвопрагматический аспект.. - М.: 2007.
10. Давыдова Н.Н. Виртуальные онимы в итальянской интернет-среде. - СПб.: 2017.
11. Aleksandra P. L'identità digitale nella società contemporanea – l'analisi sociolinguistica dei nickname usati sulle chat line italiane // The Central and Eastern European Online Library. - 2014.

UDK 659.4:81'42

KONFLIKTLI MATNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI

(Haqorat matnlari bo'yicha)

K.X. Musulmonova, o'qituvchi, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. Sud lingvistik ekspertizalarining turlari, ularni o'tkazish tartibi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Har qanday sud lingvistik ekspertizalarida umumiy va xususiy jihatlar mavjud bo'ladi. Haqorat mazmunli konfliktli matnlar bo'yicha o'tkaziladigan lingvistik ekspertizalarda ham umumiy va xususiy jihatlar mavjud. Maqolada haqorat mazmunli matnlarda lingvistik ekspertiza o'tkazish asoslari, uning xususiy jihatlarini, tarkibiy elementlari tavsiflanadi, aniq misollar asosida yoritiladi. Haqorat matnlari bo'yicha o'tkaziladigan tergov jarayonlarida lingvist-ekspert vazifasi va vakolatlari aniqlashtiriladi.

Kalit so'zlar: haqorat, obro'sizlantirish, lingvist-ekspert, kriminolingvistika, lingvistik ekspertiza, kommunikativ vaziyat, analiz, deduksiya.

Аннотация. Виды судебно-лингвистических экспертиз и порядок их проведения уникальны. Любая судебно-лингвистическая экспертиза имеет общие и частные аспекты. Лингвистическая экспертиза оскорбительных конфликтных текстов также имеет общие и специфические аспекты. В статье описаны основы лингвистической экспертизы, ее особенности, структурные элементы в оскорбительных текстах с конкретными примерами. Роль и полномочия лингвиста-эксперта будут выяснены при исследовании оскорбительных текстов.

Ключевые слова: оскорбление, клевета, лингвист-эксперт, криминолингвистика, лингвистическая экспертиза, коммуникативная ситуация, анализ, дедукция

Abstract. The types of forensic linguistic examinations and the procedure for their conduct are unique. There are general and specific aspects to any forensic linguistic examination. Linguistic examinations of insulting conflict texts also have general and specific aspects. The article describes the basics of linguistic expertise, its specific features, structural elements in insulting texts, and gives specific examples. The role and powers of a linguist-expert will be clarified during the investigation of insulting texts.

Key words: insult, defamation, linguist-expert, criminolinguistics, linguistic expertise, communicative situation, analysis, deduction

Sud lingvistik ekspertizasi qiyosiy jihatdan 20-asrning oxirida jamiyatning so'z erkinligi va oshkoralikka ehtiyojining ortishi natijasida yuzaga kelgan sohalardan biri. Sud lingvistik ekspertizasi fuqaro shaxsiyati,